

QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ XO`JALIGI VA ULARNI HUDUDIY TASHKIL ETISH

Qo`yliyeva Sevinch

Qarshi Davlat Universiteti

talabasi sevinchquyliyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo`jaligi rivoji uchun tabiiy va sun`iy omillar haqida bayon etilgan. Qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishdagi ulushi va mahsulotlarning ko`payishi bo'yicha tahlillar qilingan va olingan ma`lumotlar asosida takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so`zlar: *Resurs, sug`orma dehqonchilik, qishloq xo`jaligi, yer fondi, barqarorlik.*

СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ

Аннотация: *В статье описаны естественные и искусственные факторы рационального использования природных ресурсов и развития сельского хозяйства. Проведен анализ доли сельскохозяйственного производства и увеличения выпуска продукции, на основе полученной информации разработаны предложения.*

Ключевые слова: *Ресурс, орошаемое земледелие, земледелие, земельный фонд, устойчивость.*

AGRICULTURE OF KASHKADARYA REGION AND THEIR TERRITORIAL ORGANIZATION

Abstract: *The article describes the natural and artificial factors for the rational use of natural resources and the development of agriculture. Analyzes were made on the share of agricultural production and the increase of products, and proposals were developed based on the received information.*

Key words: *Resource, irrigated agriculture, agriculture, land fund, sustainability.*

KIRISH

Qishloq xo`jaligi insoniyat tarixida o`ta muhim ahamiyatga ega bo`lgan ishlab chiqarish tarmog`i hisoblanadi. Viloyatimiz iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining ahamiyati juda katta. Chunki viloyatimiz aholisining yarmi qishloq joylarida istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bn uzviy bog`liqdir. Qishloq xo`jalik tarmog`i aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan hamda sanoatning ayrim sohalari xomashyo bilan taminlashda muhim ahamiyatga ega. Endilikda aholi soni ehtiyojlarining o`shishi hamda qayta ishlash qayta ishlash sanoati quvvatlarining yuksalishi qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish hajmini yanada ko`paytirishni obyektiv ravishta taqozo etmoqda. Shuning uchun ham mazkur tarmoqni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish zarur.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining quyidagi xususiyatlari mavjud: eng qadimgi, an'anaviy xalq mashg'uloti; mavsumiy xususiyatga egaligi; qishloq xo'jaligining rivojlanishi ob-havo, iqlim sharoitlariga bog'liq; qishloq xo'jaligining holati, o'z navbatida, sanoatga, ayniqsa yengil oziq-ovqat sanoati rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi; ushbu tarmoqning hududiy tashkil etilishi areal xususiyatga ega (sanoat nuqta shaklida, transport chiziqsimon, tasmasimon); qishloq xo'jaligining mehnat unumdorligi sanoatga nisbatan past; qishloq xo'jaligi aholini iste'mol mollari bilan, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlaydi; qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun xom ashyo kerak emas, uning asosi agroiklimiy resurslar, ya'ni harorat, namlik va tuproq hisoblanadi. Aynan tabiiy iqlimiy sharoiti ko'p jihatdan jahon davlatlari va mintaqviy yoki hududiy qishloq xo'jalik tarmoqlariga iqtisoslashuvini belgilaydi. Shu sababli, qishloq xo'jalik tarkibi va tarmoqlarning hududiy joylashish holati turlicha bo'ladi. Ushbu tarmoq rivojlanishiga tabiiy iqlim sharoitidan tashqari, iqtisodiy – ijtimoiy sharoit (qishloq xo'jaligiga kapital qo'yilmalar jalb etish, texnik vositalar bilan ta'minlanganlik holati) hamda aholining milliy-diniy tarkibi ham katta tasir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligining yuqoridagi xususiyatlari ushbu tarmoqning asosiy iqtisodiy va iqtisodiy geografik ko'rsatkichlarini, rivojlanishi va joylanishini belgilab beradi.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati o'zining egallab turgan yer maydoni bo'yicha O'zbekistonda tarkibidagi eng yirik viloyatlardan hisoblanib, uning umumiy yer maydoni 2856,8 ming gektarni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra 2020 yil yanvar holatida viloyatda 2143,3 ming gektar qishloq xo'jalik yerlari bo'lib, shundan o'rmonlar 109,1 ming gektarni, bog'lar va tokzorlar 35,7 ming gektarni tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlar 417,2 ming va lalmi yerlar 253,2 ming gektardan iborat. Lalmikor yerlar o'rtacha yillik yog'in miqdori 250 mm dan oshadigan hududlar hisoblanib, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish faqat yog'inlar hisobiga amalga oshiriladi. Qashqadaryo vohasining mavjud yer resurslari lalmikor dehqonchilikda ancha katta miqyoslarda foydalanish imkoniyatini beradi. Qashqadaryo viloyatida haydalib, ekin ekiladigan yerlar maydoni 670,5 ming gektar yoki umumiy maydonning 23,7% ga yaqin bo'lib, shundan 253,2 ming gektari yoki jami ekin maydonlarining 9,1% lalmikor dehqonchilikda foydalaniladi. Viloyat maydonining 20,2 ming gektar yoki 0,70% maydoni bog'lar, 9,9 ming gektar yoki 0,35% maydoni tokzorlar, 8,6 ming gektar yoki 0,30% maydoni tutzorlar, 1,5 ming gektar yoki 0,01% maydoni ko'chatlar, 21,9 ming gektar yoki 0,76% maydoni bo'z yerlar, 1406,8 ming gektar yoki 49% maydoni yaylovlar tashkil etadi. Viloyatning yaylov sifatida foydalaniladigan hududlari chuqur o'zgarishga uchramagan tabiiy-antropogen yerlardir. Yerning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 13815 km uzunlikda kollektor-drenaj tarmoqlari qurilgan. Viloyatda sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida sug'orish kanallari (Qarshi, Sandal va boshqalar) va suv omborlari (Tallimarjon, Chimqo'rgon, Hisorak, Qizilsuv, Pachkamar va boshqalar) barpo etilgan. Sug'orishni tashkil etish uchun 6 ta yirik nasos stansiyasi qurilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish maqsadida Qarshi cho'lida 250 ming ga yer o'zlashtirilgan. [1]

Viloyat qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: g'allachilik, paxtachilik, kartoshkachilik, polizchilik, savzavotchilik, chorcachilik. Bog'dorchilik uzumchilik ipakchilik ham salmoqli o'rin tutadi. Viloyat agrosahasining hududiy tarkibida Chiroqchi, Kasbi tumanlari yetakchi o'rinlarda ular birgalikda yetishtirilayotkan qishloq xo'jalik mahsulotlarning taxminan 1/5 qismidan ko'prog'i taminlaydi. Bu borada Qamashi, Shahrisabz, Kitob, Qarshi va Koson tumanlarni ham vaziyati yahshiroq. Ayni chog'da Muborak va Mirishkor tumanlarida qishloq xo'jalik birmuncha sust rivojlangan. Stastitika agentligi malumotiga ko'ra 2022 yilda mahsulot hajmi -13266,4 mlrd so'mlik qishloq xo'jalik mahsulot ishlab chiqarildi.

Dehqonchilikning asosiy tarmog'i paxtachilikdir. Paxtachilik Qarshi cho'liga Amudaryo suvi chiqarilgandan keyin ayniqsa tez rivojlandi. Hozirgi kunda Paxtaning yalpi hosilini har yili 320-350 ming tonnani tashkil etadi.

Viloyat qishloq xo'jaligida g'allachilik ham muhim o'rin tutadi, sug'orilmaydigan adirlarda bug'doy, arpa sug'oriladigan yerlarda esa makkajo'xori yetishtirildi. 2022 yilda viloyat g'allakorlari 614,5 ming tonna don yetishtirdilar. Mutaxassislar fikricha viloyatda donning yalpi hosilini oshirishning katta imkoniyatlari mavjud. Undan tashqari viloyatning sharqiy tog' oldi zonalarida bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik, cho'l zonasida poliz mahsulotlari ko'plab yetishtirilmoqda. Viloyatda 2022 yilda 533865 tonna sabzavot, 165633 tonna meva va rezavorlar, 105595 tonna uzum mahsuloti yetishtirildi.

Mahsulot turi	Fermar xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda
Don	683827	90,4	92592	98,3	25446	80,0
Kartoshka	35121	111,9	146138	101,0	517	77,6
Sabzavotlar	127246	107,3	372303	102,1	5439	54,9
Poliz	84281	119,2	91319	101,0	1512	68,9
Mevalar va rezavorlar	94107	108,5	74761	102,4	3466	101,9

Viloyat qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning o'sish sur'atlari keltirib o'tilgan (2020-y). [5]

Viloyat qishloq xo'jaligining ikkinchi muhim tarmog'i chorcachilikdir. Adir-tog' zonasida qo'ychilik, sug'oriladigan zonada asosan qoramolchilik, cho'chqachilik rivojlanmoqda. Bu sohaning taraqqiyoti chorva mollar tuyoq sonining o'sishi mahsuldorligining oshishi oziqa bazasini mustahkamlanishi bilan ham bog'liqdir. Chorcachiligi go'sht-sut yetishtirishga ixtisoslashgan. Qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik rivojlangan. Muborak, Mirishkor, Nishon, G'uzor tumanlari qo'rako'lchilikka ixtisoslashgan yirik nasilchilik xo'jaliklari mavjud. Asalarichilikka ham katta etibor berilgan.

Keyingi yillarda yirik va mayda tuyoqli chorva mollari cho‘chqalar va parrandalarni ko‘paytirishga ayniqsa katta e’tibor berilmoqda. 2023- yilning oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 10249,3 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 69,8 % ni tashkil etdi. Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2023 yil ma‘lumotlari bo‘yicha Qashqadaryo viloyatida 1688,3 ming bosh yirik shoxli mollar, 4811,5 ming bosh qo‘y va echkilar, 35,2 ming bosh ot, 5957,1 mln bosh parrandalar mavjud. Bu yerda 2023 yilda 325,8 ming tonna (tirik vaznda) go‘sht, 572,4 ming tonna sut, 242,4 mln dona tuxum, 8558 tonna jun tonna 2451,5 pilla va boshqa chorva mahsulotlari yetishtirildi.[6]

O‘zbekiston xo‘jaligi tizimida Qashqadaryo paxta, pilla, don, qorako‘l teri, jun, neft, gaz, oltingugurt va boshqa ko‘plab mahsulotlar yetkazib beradigan viloyatdir. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish imkoniyatlari katta, chunki o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan yerlarning, ekin ekilayotgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, kompleks mexanizatsiyani amalga oshirish evaziga hosildorlikni va chorva mollarning mahsuldorligini oshirish yo‘li bilan viloyatning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi mavqeyini yanada oshirish mumkin.[2]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xushmurodov F. M. QASHQADARYO VOHASI CHO‘L LANSHAFTLARI TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH JIHATLARI //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 804-811.

2. Xushmurodov F. M., Ahmedova K., Sh H. QASHQADARYO VILOYATI SUG‘ORMA DEHQONCHILIGINING SHAKLLANISHIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING TABIIY SALOHİYATI //Экономика и социум. – 2024. – №. 2 (117)-1. – С. 794-803.

3. Xushmurodov F. M., Ahmedova K., Sh H. QASHQADARYO VILOYATI SUG‘ORMA DEHQONCHILIGINING SHAKLLANISHIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING TABIIY SALOHİYATI //Экономика и социум. – 2024. – №. 2 (117)-1. – С. 794-803.

4. Og‘abek O. IQLIM O‘ZGARISHLARINING SUV OBYEKTLAGA TASIRLARINING TAHLILI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 115-118.

5. Omonullayev, O. (2024). QASHQADARYO VILOYATINING AGRAR SOHASINI RIVOJLANISHI VA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH DINAMIKASININGTAHLILI. <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.11185812>

6.

QASHQADARYO
STATISTIKA BOSHQARMASI.

VILOYATI

file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/SX-PR-UZ-06-
2023%20(1)_240506_202743.pdf